



**ARAB TILI GLOBALLASHUV DAVRIDA: INNOVATSION
YONDASHUVLAR VA O'QITISH METODIKASI
IV XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN**

**اللغة العربية في عصر العولمة: مناهج مبتكرة وأساليب تدريس
المؤتمر العلمي والعملية الدولي IV**

**ARABIC LANGUAGE IN THE ERA OF GLOBALIZATION:
INNOVATIVE APPROACHES AND TEACHING METHODOLOGY
IV INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE**



2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
TARJIMONLIK FAKULTETI
ARAB TILI TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI
KAFEDRASI**

**ARAB TILI GLOBALASHUV DAVRIDA: INNOVATSION
YONDASHUVLAR VA O‘QITISH METODIKASI IV XALQARO
ILMIY-AMALIY ANJUMAN**

**اللغة العربية في عصر العولمة: مناهج مبتكرة وأساليب تدريس
المؤتمر العلمي والعملية الدولية IV**

**ARABIC LANGUAGE IN THE ERA OF GLOBALIZATION:
INNOVATIVE APPROACHES AND TEACHING
METHODOLOGY IV INTERNATIONAL SCIENTIFIC-
PRACTICAL CONFERENCE**

TOSHKENT – 2025

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli “O‘zbekiston Respublikasida 2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi to‘g‘risida” buyrug‘i asosida O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakulteti Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasidan 2025-yil 18-dekabr sanasida tashkil etilgan “Arab tili globallashuv davrida: innovatsion yondashuvlar va o‘qitish metodikasi” nomli IV xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plamidan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlar, talabalar foydalanishlari mumkin.

Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Mas’ul muharrir:

Yo‘ldoshev Ulug‘bek Ravshanbekovich

Tarjimonlik fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Kodirova Kamala Salixovna

Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasidan mudiri,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay’ati a’zolari:

Shakirova Zulfiya Normaxamatovana - Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasidan dotsenti

Umurzakova Aygul Umarovna - Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasidan o‘qituvchisi

Erimmatova Zuhra Azimboy qizi - Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasidan o‘qituvchisi

Erimmatova Fotima Azimboy qizi - Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasidan o‘qituvchisi

Shamsimatova Maxfuza Baxtiyor qizi - Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasidan o‘qituvchisi

Xayrulloev Saidjon Xusenovich - Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasidan o‘qituvchisi

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektorining
18 dekabr — Xalqaro arab tili kuniga bag'ishlangan
ilmiy-amaliy anjumandagi nutqi**

Hurmatli mehmonlar, muhtaram olimlar, professor-o'qituvchilar, xorijiy hamkorlar va aziz talabalar!

Avvalo, barchangizni O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti nomidan 18 dekabr — Xalqaro arab tili kuni munosabati bilan samimiy qutlayman.

أهلاً وسهلاً بكم، ضيوفنا الكرام!

نرحب بكم ترحيباً حاراً في جامعة أوزبكستان الحكومية للغات العالمية!

[Ahlan va sahlan bikum duyufunal kiram!]

Nurahhibu bikum tarhiyban haarran fi jaamia'ati uzbekistan al- hukumiyya lil-lug'aatil a'alamiyya]

Dear distinguished guests, colleagues and partners, welcome to the Uzbekistan State University of World Languages.

Bugungi «Arab tili globallashuv davrida: innovatsion yondashuvlar va o'qitish metodikasi» mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman arab tilining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rnini, uni o'qitishning samarali modellari va ilmiy-metodik rivojlanish istiqbollari muhokama qilishga bag'ishlangan muhim ilmiy maydondir.

Arab tili — insoniyat tsivilizatsiyasi taraqqiyotida alohida o'rin tutgan, ilm-fan, falsafa, tib, matematika va madaniyat sohalarida ulkan meros qoldirgan jahon tillaridan biridir. Bugun esa globallashuv sharoitida arab tili xalqaro munosabatlar, diplomatiya, iqtisodiy hamkorlik, tarjimashunoslik va akademik tadqiqotlar sohasida strategik ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida chet tillarni, jumladan, arab tilini o'qitish sifatini oshirishga, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti arab tili ta'limi, tarjimashunoslik va arabshunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan ilg'or markaz sifatida faol ishtirok etmoqda.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 170 dan ortiq universitetlar bilan samarali hamkorlik qilmoqda jumladan O'mon Sultonligi, Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi, BAA va Saudiya Arabistoni tashkilotlari va universitetlari bilan shartnomalar imzolangan.

Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida 16 nafar mahalliy va 9 nafar xorijlik mutaxassislar bakalavriat va magistraturada faoliyat olib bormoqda. Ular nufuzli xalqaro tashkilotlar a'zolari.

Har yili 18 dekabr kuni “Xalqaro arab tili kuni”ga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazilishi an‘anaga aylangan. Shu munosabat bilan arab tilini o‘rganayotgan talabalar o‘rtasida “O‘zDJTUda arab tili kunlari” doirasida quyidagi yo‘nalishlarda til bilish musobaqalari o‘tkaziladi:

1. Notiqlik san’ati
2. Hattotlik (Kalligrafiya)
3. Arab tilida qo‘shiq kuylash
4. Arab tilida she’r aytish

Bu yil yana “Tarjima san’ati va dublyaj” nominatsiyasi qo‘shildi.

Ayni paytda zamonaviy ta’lim arab tilini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar, raqamli ta’lim platformalari, kommunikativ va kompetentsiyaga asoslangan metodikalarni keng qo‘llashni talab etmoqda. Bugungi anjuman ana shu dolzarb masalalarni muhokama qilish, ilg‘or tajribalar bilan o‘rtoqlashish va kelgusidagi hamkorlik yo‘nalishlarini belgilash uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Fursatdan foydalanib, anjumanimizda ishtirok etayotgan barcha mahalliy va xorijiy olimlar, mutaxassislar va mehmonlarga samimiy minnatdorligimni bildiraman. Sizning ilmiy tajribangiz va fikr-mulohazalaringiz anjuman ishiga katta hissa qo‘shishiga ishonaman.

Anjuman ishiga muvaffaqiyat, mazmunli ma’ruzalar, samarali muhokamalar va amaliy natijalar tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat!